



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK VAZIRINING B U Y R U G‘ I

2025-yil “28” fevral

73-son

Toshkent shahri

O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligida markazlashgan davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonini tartibga solish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 2022-yil 20-maydagi 276-sun qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-sun qarori talablariga muvofiq,

B U Y U R A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligida Davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonida korruption holatlar yuzaga kelishi va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish, tashkil etiladigan davlat xaridlarini o‘tkazish jarayonlarini ochiqlik va shaffoflik prinsiplariga muvofiq amalga oshirilishini ta‘minlash maqsadida:

 davlat xaridlarini amalga oshirish bo‘yicha xarid komissiyasi tarkibi 1-ilovaga;

 davlat xaridlarini amalga oshirish doirasida xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarini tekshirish jarayoni bo‘yicha yo‘riqnomalariga 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Xarid komissiyasining asosiy vazifasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining markaziy apparati, Yangi ish o‘rinlari tashkil etishni rag‘batlantirish hududiy jamg‘armalari, Hokim yordamchilar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi, Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladigan markazlashgan xaridlarni ko‘rib chiqish, xolis baholash hamda davlat xaridlari raqobatlashuv usullari orqali g‘olibni tanlashdan iborat.

3. O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023-yil 18-avgustdagi 149-son hamda 2024-yil 26-apreldagi 68-son buyruqlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

4. Uch kun muddatda Davlat xaridlarini amalga oshirish bo‘yicha xarid komissiyasi a’zolari o‘zining shaxsiy “Elektron imzo” kaliti bilan xarid.uzex.uz dasturi orqali ro‘yxatdan o’tsin.

5. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Vazir



B. Zaxidov

O‘zbekiston Respublikasi
 Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining
 2025-yil “___” ____-dagi ____-son buyrug‘iga
 1-ilova

**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining markaziy apparati,
 Yangi ish o‘rinlari tashkil etishni rag‘batlantirish hududiy jamg‘armalari,
 Hokim yordamchilari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi,
 Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan
 amalga oshiriladigan davlat xaridlar bo‘yicha xarid komissiyasi**

T A R K I B I

1.	M.Jurayev	Vazirning birinchi o‘rnbosari, Komissiya raisi
2.	M.Muxammadiyev	Aholi bandligi departamenti boshlig‘i, komissiya a’zosi
3.	<i>Lavozim bo‘yicha</i>	Kambag‘allikni qisqartirish siyosatini yuritish va hokim yordamchilari faoliyatini kompleks muvofiglashtirish departamenti boshlig‘i, komissiya a’zosi
4.	<i>Lavozim bo‘yicha</i>	Kasbga o‘qitish va malakani baholash faoliyatini muvofiglashtirish boshqarmasi boshlig‘i, komissiya a’zosi
5.	Sh. Muxtarov	Davlat xaridlari va investitsiya loyihamalarini muvofiglashtirish bo‘limi boshlig‘i, komissiya a’zosi
6.	S. Abduqaxxorov	Moddiy-texnik ta’minalash bo‘limi boshlig‘i, komissiya a’zosi
7.	Sh. Najmiyev	Yuridik ta’minalash bo‘limi bosh yuriskonsulti, komissiya a’zosi
	<i>N. Barakayev</i>	Buxgalteriya bo‘limi boshlig‘i, Xarid komissiyasi mas’ul kotibi

*Izoh: Komissiyaning a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga
tayinlangan yoki vaqtincha vazifasini bajaruvchi shaxslar kiritiladi.*

O‘zbekiston Respublikasi
 Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining
 2025-yil “___” ____-dagi ____-son buyrug‘iga
 2-ilova

**O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligida
 davlat xaridlarini amalga oshirish doirasida xarid qilish tartib-taomillari
 ishtirokchilarini tekshirish jarayoni bo‘yicha**

YO‘RIQNOMA

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Yo‘riqnoma tender, tanlov va yagona yetkazib beruvchi bilan shartnomaga tuzishda O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (keyingi o‘rinlarda Vazirlik deb yuritiladi)ning xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarini majburiy tekshirishning asosiy talablari, tartibi va usullarini (keyingi o‘rinlarda xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarini tekshirish deb yuritiladi) belgilaydi.

2. Quyidagilar xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisini o‘rganishning asosiy maqsadi hisoblanadi:

Manfaatlar to‘qnashuvi hamda vazirlik tizimi tashkilotlari xodimlarining shaxsiy manfaatdorligi bilan bog‘liq bo‘lgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish;

insofsiz xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarini bilan shartnomaga tuzish xavf-xatarlarni minimallashtirish;

xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisining shartnomaga bo‘yicha tovarlarini yetkazib berish yoki xizmatlarni ko‘rsatish/ishlarni bajarish imkoniyatlarini baholash;

tegishli darajada ehtiyojkorlik bilan xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi bilan shartnomaga tuzish haqida qaror qabul qilish;

3. Xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisini tekshirish xarid qilishning barcha ishtirokchilariga nisbatan amalga oshiriladi.

4. Mazkur Yo‘riqnoma quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisining benefitsiar (oxirgi benefitsiar) egasi-xarid ishtirokchisining mulkdori bo‘lgan yoki ushbu xarid ishtirokchisiga bevosita yoki bilvosita (uchinchilik shaxslar orqali) majburiy ko‘rsatmalar berish huquqiga yoki imkoniyatiga ega bo‘lgan yohud u tomondan

qabul qilinadigan qarorlarga ta'sir ko'rsatishi yoki uning harakatlarini boshqacha usulda nazorat qilishi mumkin bo'lgan jismoniy shaxs;

IIYaR-insofsiz ishtirokchilarning yagona reestri (<http://xarid.uzimfairexecutor>);

Xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi – davlat xaridlarining subyektlaridan biri hisoblanib, Vazirlik bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishayotgan yoki kirishgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs, mehnat munosabatlari bundan mustasno;

manfaatlar to'qnashuvi – mehnat organlari va tasarrufiy tashkilotlar xodimining shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda xodimning shaxsiy manfaatdorligi bilan mehnat organlari va tasarrufiy tashkilotlar manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat;

korrupsiyaviy xavf-xatar – xodimlar yoki uchinchi shaxslar tomonidan mehnat organlari yoki o'zlarining manfaatlarini ko'zlab korrupsiyaviy xattiharakatlarni sodir etish xavfi;

skrinshot – monitor ekranidan tushirilgan surat.

2-bob. Xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisini tekshirishning umumiylari

5. Tanlov (tender) o'tkazish bo'yicha xarid komissiyasi (keyingi o'rinnlarda xarid komissiyasi deb yuritiladi) mazkur Yo'riqnomada belgilangan tartibda xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisini tekshirishga javobgar hisoblanadi.

6. Tovar yoki ish (xizmat)lar elektron do'kon yoki auksion orqali amalga oshirilganda xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisini tekshirish o'tkazilmaydi.

7. Yetkazib beruvchi bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzilganda ushbu yetkazib beruvchini tekshirish bir yilda kamida bir marta o'tkaziladi.

8. Mazkur Yo'riqnomalar talablariga muvofiq tekshirilishi kerak bo'lgan xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi bilan tekshiruv o'tkazilib, uning natijalari olinmasdan turib shartnomaviy munosabatlarga kirishish yoki bitimlar tuzilishiga yo'l qo'yilmaydi.

9. O'tkazilgan tekshiruv natijalari mazkur Yo'riqnomaning 1-ilovasiga muvofiq shaklda tuziladigan hisobotda aks ettiriladi (hisobot Xarid komissiyasi kotibi tomonidan yuritiladi).

10. Vazirlikning Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisini tekshirish jarayonini maslahat berish formatida va korrupsiyaga qarshi monitoring doirasida nazorat qiladi va uslubiy yordam ko'rsatadi.

Xarid komissiyasi xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisini quyidagilar asosida tekshiradi:

ma'lumotlarning ochiq manbai;

xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan hujjatlar.

11. Tanlov yoki tender hujjatlarini tayyorlovchi shaxs hujjatlar ro'yxatida xarid ishtirokchisidan quyidagi hujjatlar taqdim etilishini ko'rsatishi lozim:

Davlat ro'yxatidan o'tganligi haqidagi guvohnoma nusxasi;

ishonchnomaning yoki xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi vakilining bitimlar tuzish va hujjatlarni imzolash bo'yicha vakolatlarini tasdiqlovchi boshqa hujjatlari nusxasi;

agar mavjud bo'lsa, xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki hujjatlari (siyosat, nizomlar, odob-axloq qoidalari, korrupsiyaga qarshi dasturlar va h.k.);

xarid qilinayotgan tovar yoki ish (xizmat)ning xususiyatidan kelib chiqib xaridning barcha ishtirokchilaridan zaruratga ko'ra so'raladigan boshqa hujjatlar;

12. O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq mazkur Yo'riqnomaning 12-bandida ko'rsatilgan hujjatlar olinishi majburiy bo'lib hisoblanadi, xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki hujjatlari va xarid ishtirokchisining oxirgi benifitsiarlari haqidagi ma'lumotnoma bundan mustasno. Xarid ishtirokchisi tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki hujjatlari va xarid ishtirokchisining oxirgi benifitsiarlari haqidagi ma'lumotnoma berishdan bosh tortganda Xarid komissiyasiga xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan hujjatlar asosida tekshiriladi.

3-bob. Xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish

13. Xarid komissiyasi quyidagi yo'nalishlar bo'yicha xarid qilish tartib taomillari ishtirokchilari haqidagi ma'lumotni tekshiradi va tahlil qiladi.

a) Xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisining ta'sis etilishi va shartnoma tuzish vakolati haqidagi ma'lumotnoma tahlil qilish.

Xarid komissiyasi Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reestri, davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi haqida guvohnoma, ishonchnoma yoki xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi vakilining bitim tuzish va hujjatlarni tuzishga vakolat beruvchi boshqa hujjatlardagi ma'lumotlarni tahlil qiladi va quyidagilarni aniqlaydi:

Xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisining Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reestrinda mavjudligi;

xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisining yuridik va haqiqiy manzili;

xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi rahbari va muassislaring F.I.O.;

xarid ishtirokchisi asosiy faoliyatining xarid predmetiga muvofiqligi;

xarid ishtirokchisi tugatish jarayonida emasligi yoki faoliyati tugatilmaganligi;

xarid ishtirokchisining yillar davomida faoliyat olib borish muddati (xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi tekshirilgan sana bilan yuridik shaxs davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan sana o‘rtasidagi farqi);

b) Soliq va boshqa mujburiy to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik mavjud emasligini tekshirish.

Xarid komissiyasi xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisida soliq qarzi mavjud emasligini soliq organlarining elektron davlat xizmatlari portali orqali tekshirish. (<https://my2.soliq.uz>).

c) Xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisiga nisbatan bankrotlik tartib-taomillari joriy etilmaganligi.

Xarid komissiyasi xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisiga nisbatan bankrotlik tartib-taomillari joriy etilganligini soliq organlarining elektron davlat xizmatlari portali orqali tekshiradi (<https://my2.soliq.uz>).

d) Axborotlarning o‘chiq manbalarida ehtimoli bo‘lgan korrupsiyaga oid huquqbazarlik haqida ma’lumotlar mavjud emasligi.

Xarid komissiyasi xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi tomonidan sodir etgan bo‘lishi mumkin bo‘lgan korrupsiyaga oid huquqbazarliklar haqidagi ma’lumotlarni Internet tarmog‘idagi “Google” yoki boshqa qidiruv tizimida o‘chiq izlash yo‘li bilan o‘rganadi. Tekshiruv o‘tkazish maqsadida Xarid komissiyasining mas’ul a’zosi qidiruv qatoriga quyidagi kombinatsiyalarni kiritadi:

“xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi nomi” korrupsiya;

“xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi nomi” pora;

“xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi rahbarining familiya, ismi” korrupsiya;

“xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi rahbarining familiyasi, ismi” pora;

“muassis/mulkdor familiyasi, ismi” korrupsiya;

“muassis/mulkdor familiyasi, ismi” pora;

“oxirgi benefitsiarlarning familiyasi, ismi” korrupsiya;

“oxirgi benefitsiarlarning familiyasi, ismi” pora.

e) Xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi saytdagi ma’lumotlarning tahlili.

Xarid komissiyasi xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisida rasmiy sayt mavjudligi yoki mavjud emasligini aniqlaydi. Xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisida rasmiy sayt mavjud bo‘lganda Xarid komissiyasining mas’ul a’zosi tomonidan saytda korrupsiyaga qarshi hujjatlar va yangiliklar, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha bo‘lim mavjudligini aniqlaydi.

f) Vazirlik va tizim tashkilotlarning xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi bilan o‘zaro xamkorligi tarixining tahlili.

Xarid komissiyasi Vazirlik bilan xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi o‘rtasida oxirgi 3 yilda shartnomaviy munosabatlari mavjudligini aniqlaydi. Bunday munosabatlar aniqlanganda oldin tuzilgan shartnomalarni o‘z vaqtida, lozim

darajada va sifatli ijro etilganligi, shuningdek, bunday xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisining korrupsiyaviy faoliyatda ishtirok etganligini tasdiqlovchi faktlar va shubhalar tahlil qilinishi lozim.

g) Xarid ishtirokchilarida shartnomani bajarish uchun zarur texnik, moliyaviy, moddiy, kadrlarga va boshqa resurslar mavjudligining tahlili.

Xarid komissiyasi kotibi xarid ishtirokchilarida shartnomani bajarish uchun zarur texnik, moliyaviy, moddiy, kadrlarga oid va boshqa resurslar mavjudligi (obyektlarni ko‘rish, rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlash ishlari bundan mustasno) tahlil qilinishi lozim.

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 18-fevraldagi 91-son qarori bilan tasdiqlangan obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlash ishlari bo‘yicha namunaviy tanlov va tender hujjatlari asosida tanlovni (tenderni) tashkil etish va o‘tkazish faqat 2020-yilda qurilishi, rekonstruksiya qilinishi va kapital ta’mirlanishi nazarda tutilgan obektlarga nisbatan amal qiladi.

4-bob. Manfaatlar to‘qnashuvi mavjud emasligini tekshirish

14. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunning 39-moddasiga asosan davlat buyurtmachisining maxsus axborot portalini operatorining mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari, shuningdek xarid komissiyasining a’zolari xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirishda o‘z ishtirokidagi davlat xaridlariga doir bitimning natijasi bo‘lishi mumkin bo‘lgan istalgan shaxsiy nafni bevosita yoki bilvosita olish huquqiga ega emas.

15. Xarid komissiyasining mas’ul a’zosi konvertlarni quyidagi tarzda ochgandan keyin bir kun ichida manfaatlar to‘qnashuvining yo‘qligini tekshiradi:

Vazirlikning xodimlari obektivkalarining ma’lumotlari bazasida xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi nomi mavjudligini tekshiradi. Buning uchun xodimlarning ma’lumotnoma-obektivkalari saqlanadigan elektron papkada “Izlash” maydoniga xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi nomi kiritiladi va “Enter” tugmasi bosiladi. Xodimlar obektivkasida uning nomi aniqlanganda obektivkasida tasodif aniqlangan xodimga aniqlashtiruvchi so‘rov yuborish yo‘li bilan manfaatlar to‘qnashuvining mavjudligi yoki mavjud emasligi bo‘yicha navbatdagi tahlil amalga oshiriladi.

Vazirlikning xodimlari obektivkalarining ma’lumotlari bazasida muassislar, rahbarlar va oxirgi benefitsiarlarni mavjudligini tekshiradi. Buning uchun xodimlarning ma’lumotnoma-obektivkalari saqlanadigan elektron papkada “Izlash” maydoniga muassislar, rahbarlar va oxirgi benefitsiarlar nomi navbat bilan kiritiladi va “Enter” tugmasi bosiladi. Tasodiflar aniqlanganda ularga xodimning obektmvkasida va xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi tomonidan oxirgi benifitsiarlar haqida berilgan ma’lumotnomada ko‘rsatilgan shaxsning tug‘ilgan sanasini tekshirish yo‘li bilan yanada aniqlik kiritiladi. To‘liq tasodif aniqlanganda

xodimga aniqlashtiruvchi so‘rov yuborish yo‘li bilan manfaatlar to‘qnashuvining mavjudligi yoki mavjud emasligi bo‘yicha navbatdagi tahlil amalga oshiriladi.

16. Manfaatlar to‘qnashuvining mavjudligi yoki mavjud emasligi haqidagi qaror tekshiruv o‘tkazgan xarid komissiyasining mas’ul a’zosi tomonidan qabul qilinadi.

17. Yagona yetkazib beruvchi bilan shartnoma asosida xaridlar amalga oshirilgan taqdirda Xarid komissiyasining mas’ul a’zosi tomonidan xarid qilish tartib-qoidalarida ishtirok etgan shaxslardan hujjatlar olingan kundan boshlab yagona yetkazib beruvchini tekshirish jarayoni ushbu Yo‘riqnomaning 16-bandiga asaosan amalga oshiradi.

18. Xarid komissiyasining mas’ul a’zosi (Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘limi) tekshiruv natijalariga ko‘ra Xarid komissiyasiga manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi yoki mavjud emasligi haqidagi ma’lumotni o‘z ichiga olgan xizmat xatini yuboradi.

19. Manfaatlar to‘qnashuvi aniqlanganda Xarid komissiyasi quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

a) Vazirlikning boshqa manfaatdor xodimi bilan xarid ishtirokchisi o‘rtasida manfaatlar to‘qnashuvi mavjud bo‘lganda xarid ishtirokchisi xaridda qatnashishdan chetlashtiriladi;

b) Xarid komissiyasi a’zosi bilan xarid ishtirokchisi o‘rtasida manfaatlar to‘qnashuvi mavjud bo‘lganda: xarid bekor qilinadi va takroriy xarid tashkil qilinadi, manfaatlar to‘qnashuvi mavjud bo‘lgan Xarid komissiyasining a’zosi xaridda qatnashishdan chetlashtiriladi.

20. Mazkur yo‘riqnomaning 20-bandi “a” va “b” kichik bandlarida nazardautilgan xollarda quyidagi choralar ko‘rilishi kerak:

Xarid komissiyasining majlisida qatnashish uchun ovoz berish huquqiga ega bo‘limgan, biroq xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisini tanlash jarayonining shaffofligi va xolisligini nazorat qiladigan Vazirlikning Korrupsiya qarshi kurashish bo‘limi xodimi taklif qilinishi lozim.

Korrupsiya karshi kurashish bo‘limi xodimi xarid komissiyasining yig‘ilishida vedokonferensiya aloqa vositasida ham ishtirok etishi mumkin.

Ishtirokchini rad etish haqidagi ma’lumot xarid komissiyasi majlisining bayonnomasida ko‘rsatiladi.

21. Agar vazirlik xodimi va yagona yetkazib beruvchi o‘rtasida manfaatlar to‘qnashuvi mavjud bo‘lsa, shartnoma tuzilmaydi.

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

22. Mazkur Yo‘riqnomaning 2-ilovasida tavsiflangan tahlil natijalari mazkur Yo‘riqnomaning 1-ilovasiga muvofiq shaklda xarid qilish tartib-taomillari

ishtirokchisini tekshirish haqidagi hisobotda o'tkazilgan tahlillar skrinshoti ilova qilingan holda aks ettiriladi.

23. Xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisini tekshirish haqidagi hisobot Xarid komissiyasi kotibi tomonidan xarid komissiyasiga yetkaziladi va yakuniy qaror qabul qilinishida inobatga olinadi, bu xaqda komissiya majlisining bayonnomasida qayd etiladi.

24. Xarid komissiyasi, agar tekshiruv natijalariga ko'ra ular O'zbekiston Respu'blikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunning 29 va 34-moddalariga muvofiq kelmasa ishtirokchilar ko'rsatilgan mezonlarga javob bermaydi, deb topadi.

25. Agar xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisini tekshirish natijalariga ko'ra korrupsiyaviy xavf-xatarning mavjudligidan yoki korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining mavjud emasligidan dalolat beruvchi ma'lumotlar aniqlanganda, ya'ni 12 va 14-bandlarda tegishli ma'lumotlar ko'rsatilganda, unda korrupsiyaviy xavf-xatarni minimallashtirish bo'yicha quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim.

Ishtirokchilarning takliflarini baholash faqatgina ochiq tarzda amalga oshiriladi. Xarid komissiyasining majlisida qatnashish uchun ovoz berish huquqiga ega bo'limgan, biroq xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisini tanlash jarayonining shaffofligi va xolisligini nazorat qiladigan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi xodimi taklif qilinadi.

Korrupsiyaga karshi kurashish bo'limi xodimi xarid komissiyasining yig'ilishida vedokonferensiya aloqa vositasida ham ishtirok etishi mumkin;

agar korrupsiyaviy xavf-xatar bilan tavsiflangan ishtirokchi tanlov yoki tender g'olibi deb topilganda, vazirlik va uning tizimidagi davlat xaridlarini muvofiqlashtirish bo'limi tuziladigan shartnomalarini ishtirokchining arizasiga va tanlov yoki tender hujjatlari shartlariga muvofiqligini tekshirishi lozim;

agar korrupsiyaviy xavf-xatar bilan tavsiflangan ishtirokchi tanlov yoki tender g'olibi deb topilganda, xarid natijalari (maxsulot yetkazib berish, xizmat ko'rsatish, ish bajarish)ni qabul qilish Vazirlikdagi turli tarkibiy bo'limlarining kamida uch nafar xodimi tomonidan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi xodimi ishtirokida amalga oshiriladi.

26. Tekshiruv natijalari haqidagi hisobot xarid hujjatlariga qo'shiladi va Moddiy-texnik ta'minlash bo'limi hamda vazirlik va uning tizimida davlat xaridlarini muvofiqlashtirish bo'limida saqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish
va bandlik vazirligida davlat xaridlarini amalga oshirish
doirasida xarid qilish tartib-taomillari
ishtirokchilarini tekshirish jarayoni bo‘yicha
yo‘riqnomaga
1-ILOVA

Xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisini tekshirish haqidagi

HISOBOT

1. Xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi nomi _____
2. STIR _____
3. Ro‘yxatga olish sanasi _____
4. Manzil _____

5. Rahbar F.I.O. _____
6. Muassislar F.I.O. _____
7. Oxirgi benefitsiarlar F.I.O. _____
8. Ishtirokchi shartnoma tuzishga vakolatlimi? _____
9. Soliq va boshqa majburiy to‘lovlardan qarzdorlik mavjudmi? _____
10. Xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisiga nisbatan bankrotlik tartib-taomillarning joriy qilinganmi? _____

11. Insofsiz ijrochilar yagona reestridda xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi haqida yozuvlar mavjudmi? _____
12. Ishtirokchi xaridning boshqa ishtirokchilari bilan kafillanganmi? _____

13. Bo‘lishi mumkin bo‘lgan korrupsiyaga oid huquqbazarliklar haqida ma’lumot mavjudmi? _____

14. Korrupsiyaga qarshi hujjatlar mavjudmi? (taqdim etilgan yoki saytdagi) _____

15. Xarid qilish tartib taomillari ishtirokchisi sayti _____

16. Xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi rusurslari hajmi shartnoma bo‘yicha majburiyatlarini bajarishga yetarlimi? _____

_____ Ha _____ Yo‘q

_____ so‘m.

_____ Ha _____ Yo‘q

_____ Ha _____ Yo‘q

_____ Ha _____ Yo‘q
Mavjud emas/Manbaa: (havola),
(Korruptsiyaga oid huquqbazarliklar tavsifi/xarid
qilish tartib-taomillari ishtirokchisining
poraxo‘rligi)

_____ Ha _____ Yo‘q

*Mavjud emas/Saytning adresi (havola), faoliyat
yuritadi/yuritmadi*

_____ Ha _____ Yo‘q

17. Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi
ma’lumot mavjudmi? _____ Ha _____ Yo‘q
18. Hisobotga ilova qilingan boshqa
materiallar _____ Ha _____ Yo‘q
19. Xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisini tekshiradigan xodim
haqida ma’lumotlar
- a) _____
b) _____
c) _____
d) _____

F.I.O. _____
Lavozimi _____
Hisobot tuzilgan sana _____
Lot raqami _____

O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni
qisqartirish va bandlik vazirligida davlat xaridlarini
amalga oshirish doirasida xarid qilish
tartib-taomillari ishtirokchilarini tekshirish
jarayoni bo‘yicha yo‘riqnomaga
2-ILOVA

UMUMIY BAHOLASH JADVALI
No_____ lot bo‘yicha tanlov/tender qatnashchilarining takliflari

No	Qatnashchining nomlanishi	Narx bo‘yicha ikkinchi konvertni bali	Birinchi konvertni bali	Umumiy ball
		Maks. 60 ball	Maks. 40 ball	Maks. 100 ball
1.				
2.				